

**RENESSANS*****MAXAMMATKARIMOV BOBURBEK BAHODIRJON o'g'li****Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali,**Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedra talabasi.**Tel: +998 (77)-005 -35-18. E-mail; [maxammatkarimov0909@gmail.com](mailto:maxammatkarimov0909@gmail.com)***RENESSANS*****MAKHAMMATKARIMOV BOBURBEK BAKHODIRJON o'g'li****Student of the Department of Social and Humanitarian Sciences, Namangan Branch**of the Tashkent International University of Chemistry.**Tel: +998 (77)-005 -35-18. E-mail; [maxammatkarimov0909@gmail.com](mailto:maxammatkarimov0909@gmail.com)***РЕНЕССАНС*****МАХАММАТКАРИМОВ БАБУРБЕК БАХОДИРДЖОН ОГЛИ****Студентка кафедры социально-гуманитарных наук Наманганского филиала**Ташкентского международного химического университета**Tel: +998 (77)-005 -35-18. E-mail; [maxammatkarimov0909@gmail.com](mailto:maxammatkarimov0909@gmail.com)***Annotatsiya**

Ushbu maqola renesans davrda insoniyat tarixining inqilobiy-siyosiy boshqa davrlarga nisbatan ajralib turuvchi bosqichlaridan biri bo'lib, Ushbu davrda ilm-fan, san'at, madaniyat va falsafa sohalarida global tarixdagi o'rni haqida ma'lumot beradi. Ushbu maqola Renesansning tarixiy kontekstida, uning ilmiy va madaniy inqiloblari, o'sha davrda yuzaga kelgan yangi g'oyalar va yangiliklar haqida tahliliy yondashuvni taklif etadi. Renesans nafaqat ilm-fan va san'atni, balki ijtimoiy tuzumni ham o'zgartirdi. Bu yangi falsafiy oqimlar, gumanizm va inson tafakkurining qudratini e'tirof etish hamda inson huquqlarini ilgari surish kabi g'oyalar Renesansning muhim ijtimoiy yutuqlaridan biri edi. Ushbu o'zgarishlar natijasida, insoniyat tafakkuri yangi bosqichga o'tdi va jamiyatda yangi erkinliklar, tenglik vaadolat g'oyalari rivojlanlantirdi. Maqolada Renesans davrining ilmiy va madaniy yutuqlari, shuningdek, bu yutuqlarni insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi va bugungi kunda ham davom etayotgan ta'siri yoritiladi. Maqola shuningdek, Renesansning zamonaviy ilm-fan, san'at va madaniyatga qanday ta'sir ko'rsatganini va bu ta'sirning hozirgi kunda qanday davom etayotganini bildiradi.

**Kalit so‘zlar:** Renesans, Uyg‘onish davri, ilmiy inqilob, san’at, madaniyat, inson tafakkuri, ixtiolar, adabiyot, falsafa, e’tirof, gumanizm, g’oya,adolat, zamonaviy, ijtimoiy, global, tarixiy konteksti, tenglik, rivojlanish, madani yutuqlar.

### **Abstract**

This article is about the Renaissance, one of the revolutionary and political periods of human history, which stands out from other periods in the history of mankind. It provides information about the place of science, art, culture and philosophy in global history during this period. This article offers an analytical approach to the historical context of the Renaissance, its scientific and cultural revolutions, new ideas and innovations that emerged during that period. The Renaissance changed not only science and art, but also the social system. These new philosophical movements, such as humanism and the recognition of the power of human thought, and the promotion of human rights, were among the important social achievements of the Renaissance. As a result of these changes, human thought moved to a new stage and new ideas of freedom, equality and justice developed in society. The article highlights the scientific and cultural achievements of the Renaissance, as well as the contribution of these achievements to the development of humanity and their continuing impact today. The article also explains how the Renaissance influenced modern science, art, and culture, and how this influence continues today.

**Keywords:** Renaissance, Renaissance, scientific revolution, art, culture, human thought, inventions, literature, philosophy, recognition, humanism, idea, justice, modern, social, global, historical context, equality, development, cultural achievements.

### **Аннотация**

В статье представлена информация об эпохе Возрождения — одном из революционных и политических периодов в истории человечества, выделяющемся на фоне других периодов, — и его месте в мировой истории в области науки, искусства, культуры и философии. В статье предлагается аналитический подход к историческому контексту эпохи Возрождения, ее научным и культурным революциям, а также новым идеям и нововведениям, появившимся в этот период. Эпоха Возрождения изменила не только науку и искусство, но и общественный строй. Эти новые философские движения, такие как гуманизм и признание силы человеческой мысли, а также поощрение прав человека, были одними из важных социальных достижений эпохи Возрождения. В результате этих изменений человеческая мысль перешла на новый этап и выработала новые идеи свободы, равенства и справедливости в обществе. В статье освещаются научные и культурные достижения эпохи Возрождения, а также вклад этих достижений в прогресс человечества и их продолжающееся влияние в наши дни. В статье также объясняется, как эпоха Возрождения

повлияла на современную науку, искусство и культуру, и как это влияние продолжается и по сей день.

**Ключевые слова:** Возрождение, научная революция, искусство, культура, человеческая мысль, изобретения, литература, философия, признание, гуманизм, идея, справедливость, современный, социальный, глобальный, исторический контекст, равенство, развитие, культурные достижения.

### Kirish

Usmonli imperiyasi jahon tarixidagi eng uzoq davom etgan imperiyalardan biri hisoblanadi. Imperiya 1299-yilda tashkil topganidan to 1922-yilda parchalanishigacha bo‘lgan davr 600 yildan ortiq vaqtini o‘z ichiga olgan. Imperatorlik o‘zining eng yuqori cho‘qqisida boshqargan uch qit’a: Yevropa, Osiyo va Afrikaning katta hududlarni nazorat qilgan. Afrika. Usmonli imperiyasini Sharq va G’arb bilan bog’laydigan strategik pozitsiyasi asrlar davomida global savdo, diplomatiya va harbiy strategiyani shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynagan. 17-asr boshlariga kelib Usmonlilar davlati yer maydoni kengayib g‘arbda Vena darvozalaridan sharqda Fors ko‘rfaziga, shimolda Shimoliy Afrika qirg‘oqlaridan Kavkazgacha cho‘zilgan. Imperianing geosiyosiy ta’siri uning muhim savdo yo’llarini, jumladan, Ipak yo’li va O’rta er dengizi yuk tashish yo’llarini nazorat qilishi bilan ta’kidlangan, bu esa tovarlar, g’oyalar va madaniyatlar almashinuvini osonlashtirgan. Usmonlilar ham Yevropa, ham Yaqin Sharq siyosiy va harbiy tizimlarining rivojlanishida asosiy rol o‘ynagan. Ularning murakkab huquqiy, ijtimoiy va ma’muriy tuzilmasi, jumladan, imperiya tarkibidagi turli etnik va diniy guruhlarni boshqaradigan millat tizimi ajoyib moslashuvchanlik va uzoq muddatli barqarorlikni namoyish etdi.lekin 18-asrga kelib imperianing barqarorligi ichki muammolar, demakiratik kelishmovchiliklar, harbiy tanazzul va iqtisodiy qiyinchiliklar, Yevropa kuchlarining kuchayishi va uning chegaralaridagi millatchilik harakatlari kabi tashqi tazyiqlar bilan qo’shilib keta boshladi. 19-asr oxiri va 20-asr boshlariga kelib. Bu bosimlarning avj olib , oxir-oqibat, Birinchi jahon urushidan keyin parchalanishiga olib keldi, Usmonli imperiyasi hukimronlik yillarida ko‘p millatli, ko‘p dinli tuzilma bo‘lgan va uning merosi o‘zi hukmronlik qilgan hududlarning siyosiy, diniy va madaniy merosiga ta’sir qilishda. Bugungi kundan aslo to’xtagani yoq. Usmonli imperiyasini tarixini o’rganish imperianing paydo bo’lishi davomiy 600 yildan ortiq hukurmonlik qilgani ,mustamlakachilik va mustamlakachilikdan keyingi o’zaro munosabatlarning murakkab dinamikasi haqida qimmatli fikrlarni taqdim etadi..

### Adabiyot tahlili va metodologiya

Ренессанс davrida insoniyat erishgan yutuqlarni o‘rganishda ilmiy adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasini aniq belgilash muhim ahamiyatga ega. Ushbu bo‘limda mavzuga oid mavjud ilmiy manbalar tahlil qilinadi va tadqiqot usullari bayon

etiladi. Renesans davrining ilmiy va madaniy ahamiyatini to‘liq tushunish uchun keng miqyosdagi metodologik yondashuvlarni qo‘llash zarur bo’ladi. Ushbu yondashuvlar ilmiy izlanishlarni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi va Renesans davrining bugungi ilm-fan, san’at va madaniyatga ta’sirini aniqlashga yordam beradi.

### **Adabiyot tahlili**

Renesans davriga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar ko‘plab sohalarni o’z ichiga qamrab oladi. Masalan, "Uyg‘onish davri" maqolasida bu davrning madaniy va tafakkuriy taraqqiyoti haqida bat afsil ma'lumot berilgan Ushbu maqola Renesans davrining ijtimoiy, siyosiy va ilmiy o‘zgarishlarini, shuningdek bu o‘zgarishlarning inson tafakkuri va jamiyatdagi ta’sirini yoritadi. Boshqa bir muhim tadqiqot, "IX-XII asrlar musulmon falsafiy tafakkuri va Yevropa Renesans davri falsafasining o‘zaro ta’siri" Yevropa Renesansining boshlanishi va uning ilgari musulmon olamidagi ilmiy, falsafiy yutuqlardan qanday ta’sirlanganini tahlil qiladi. Bu manba Renesans davrining ijtimoiy va falsafiy o‘zgarishlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek Renesans davrining san’ati, adabiyoti va ilm-fani haqida ko‘plab monografik asarlar mavjud. "Leonardo da Vinchi: San'at va Ilm" asari Leonardo da Vinchi va uning ilmiy va san’atiy merosi haqida yozilgan eng to‘liq tahlil hisoblanadi. Bu asar, Renesans davri madaniyati va san’atining chuqur tahlilini taqdim etib, da Vinchi asarlarini san’atshunoslik va ilmiy yondashuvda integratsiyalashgan holda o‘rganadi. Bu ul orqali Renessans davrida yuz bergan ilmiy, madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlar o‘rganiladi. Mas, Italiyada shoirlar Petrarka va Dante, rassom Jotto, adib va mutafakkirlar Bokkachcho, Ariosto, Tasso kabi ijodkorlar Renessans g‘oyalarining jarchilari bo‘lib maydonga chiqdilar. Keynik, Mikelanjelo, Rafael, Shekspir, Migel de Servantes Yevropaning turli mamlakatlarida bu harakatni davom ettirdilar.

Renessans davrida ilm-fan, san’at va madaniyat sohalarida erishilgan yutuqlarni miqdoriy ko‘rsatkichorqali baholash uchun statistik ma'lumotlar tahlil qilinadi. Misol uchun, Renessans davrida ixtiro qilingan yangi texnologiyalar, ilmiy kashfiyotlar va san’atda o‘zgarishlar miqdoriy ko‘rsatkichlar yordamida baholanadi. Renessans davrini boshqa tarixiy davrlar bilan solishtirish orquning o‘ziga xos xususiyatlari va yutuqlari aniqlanadi. Bu usul yordamida Renessans davrining ijtimoiy, madaniy va ilmiy taraqqiyoti boshqa davri bilan taqqoslanadi va ularning farqlari ko‘rsatiladi. Tarix, falsafa, san’atshunoslik va boshqa fanlar bo‘yicha ma'lumotlarni birlashtirish orqali Renessdavrining keng qamrovli tahlili amalga oshiriladi. Bu usul, Renessans davrining ilmiy, madaniy va san’a hatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ushbu metodologik yondashuvlar orqali Renessans davrida insonlar erishgan yutuqlarni cr va har tomonlama o‘rganish maqsad qilingan. Metodologiyaning integratsiyalashgan yondashuvi Renessansning turli sohalardagi yutuqlarini bir-biri bilan bog‘laydi vaarning ta’sirini yanada aniqroq tasvirlaydi.

Bundan tashqari, bosma uskunaning ixtiro qilinishi (Gutenberg, taxminan 1440-yillar) bilimlarning keng tarqalishiga va savodxonlik darajasining oshishiga olib keldi. Bu ixtiro, Renesansning madaniy yuksalishini yanada kuchaytirdi, chunki u adabiyot va ilmiy asarlarning tez va keng tarqalishini ta'minladi. Bu davrda yuzaga kelgan yangi adabiy, ilmiy va falsafiy qarashlar, inson tafakkurini rivojlantirib, kelajakda katta ilmiy islohotlarning asosini yaratdi.

## MUHOKAMA

Renessans davri – insoniyat tarixining eng muhim buriish nuqtalaridan biri bolib. XIV-XVI asrlarga kelib, jamiyat o‘rtta asrlarning diniy cheklovlaridan asta-sekin xalos bo‘lib, tafakkur va ijod erkinligini tubdan qadrlay boshladi. Bu davrda ilm-fan, san’at va madaniyat rivojlanib, butun dunyo tarixini o‘zgartirgan yangiliklarga asos solinadi. Ayniqsa, ilm-fan olamida misli ko‘rilmagan yangiliklar yuzaga kela boshlagan. Kopernik Yerning Quyosh atrofida aylanishini isbotladi, Galiley esa teleskop orqali koinotni kuzatib, ilm-fanga tub burilish yasadi. Leonardo da Vinci nafaqat buyuk rassom, balki ixtirochi va olim sifatida ham tanilgan. Uning chizmalari keyingi asrlardagi ilmiy kashfiyotlarga asos bo‘ldi. San’at va adabiyot ham tubdan o‘zgaradi. Mikelanjelo va Rafael o‘z asarlari bilan san’atga burilish yani tabiiylik olib keldi. Shekspir kabi yozuvchilar inson his-tuyg‘ularini chuqur yoritib, adabiyotga yangi nafas beradi. Bu o‘zgarishlarning eng muhim sabablaridan biri – bosma uskunaning ixtiro qilinishi bolgan. Taxminan 1440-yillarda Gutenberg tomonidan ixtiro qilingan bosmaxona kitoblarni ko‘proq odamga yetkazish imkonini bergen. Natijada, savodxonlik darjasini oshib, bilim almashinushi tezlashdi va ilmiy inqiloblar uchun qulay sharoit yaratildi. Renessans davri shunchaki tarixiy bosqich emas, balki bugungi madaniyat, ilm-fan va jamiyat taraqqiyotiga asos solgan muhim davr hisoblanadi. Ushbu yutuqlar tufayli insoniyat olg‘a siljidi, tafakkur erkinligi rivojlandi va zamonaviy ilm-fan shakllandi.

### Ilm-fan sohasidagi yutuqlar

Renessans davri ilm-fan sohasida keskin o‘zgarishlarni boshlab berdi va inson tafakkurini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi. Bu davrda ilmiy bilimlar tajriba va kuzatuvga asoslangan holda shakllana boshladi, an’anaviy qarashlar esa ilmiy dalillar bilan qayta ko‘rib chiqildi. Misol uchun, polyak astronomi **Nikola Kopernik** ilgari hukmronlik qilgan geosentrik nazariyani rad etib, **geliosentrik tizimni** olga surdi. Unga ko‘ra, Yer va boshqa sayyoralar Quyosh atrofida aylanadi. Bu g‘oya ilmiy jamoatchilik orasida katta bahs-munozaralarga sabab bo‘lsa-da, keyinchalik **Galileo Galilei** va **Yohannes Kepler** kabi olimlar tomonidan tajribalar va matematik hisob-kitoblar bilan tasdiqlandi. **Galilei** teleskopni rivojlantirib, **oy yuzasining notejisligi, Yupiterning yo‘ldoshlari va Veneraning fazalari** kabi muhim astronomik hodisalarni kuzatdi. Bu kashfiyotlar nafaqat koinot haqidagi fikrlarni o‘zgartirdi, balki ilmiy metodologiyaning rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shdi. Galilei eksperiment va

kuzatuv asosida xulosalar chiqarish tamoyilini ilgari surdi, bu esa zamonaviy ilmiy metodning asosiga aylandi. Ammo ilmiy o‘zgarishlar faqat astronomiya bilan cheklanib qolmadi. **Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Rafael** kabi buyuk rassomlar nafaqat san’at bilan shug‘ullandilar, balki anatomiya, fizika va muhandislik sohalarida ham yirik ishlar olib bordilar. Leonardo da Vinchi o‘zining jurnal va eskizlarida **odam tanasining anatomik tuzilishini** mukammal tasvirladi. U mushak va suyak tizimlarini aniq chizib, zamonaviy anatomiya fanining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdi. Bundan tashqari, mexanika va muhandislik sohalari ham shiddatli rivojlandi. **Leonardo da Vinchi** turli mexanik qurilmalar loyihamini chizdi: **vertolyot prototipi, parashut, suv osti kemasi va avtomatlashtirilgan harakatlanuvchi mexanizmlar**. Ushbu g‘oyalar keyinchalik sanoat inqilobiga yo‘l ochdi. Renessans davrida ilm-fan va san’at o‘rtasidagi bog‘liqlik ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ldi. San’atdagi realizm va anatomik aniqlik, fizikadagi qonuniyatlar, astronomiyadagi yangi nazariyalar va texnologik yutuqlar bir-birini to‘ldirib bordi. Bu jarayon keyingi asrlarda ilm-fanning uzlusiz rivojlanishiga turtki berdi va zamonaviy ilmiy inqilobning asosi bo‘lib xizmat qildi.

### **San’at va madaniyat sohasidagi yutuqlar**

Renessans davrida san’at va madaniyat yangi bosqichga ko‘tarildi. Ushbu davr san’atkorlari realizm, tasavvur va inson his-tuyg‘ularini aniq tasvirlashga intildilar. Ularning ijodi nafaqat badiiy yutuqlari, balki ilm-fan bilan bog‘liq tadqiqotlar orqali ham rivojlandi. Rassomlar va haykaltaroshlar anatomiya, matematika va optikadan foydalangan holda san’atni yanada tabiiy va jonli qilishga erishdilar. Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Rafael singari buyuk san’atkorlar o‘z asarlari orqali badiiy tafakkurni o‘zgartirib, yangi tamoyillarni joriy etdilar. **Leonardo da Vinchi** san’at va ilm-fanni muvofiqlashtirib, inson anatomiyasini chuqur o‘rganib, tasviriy san’atni yanada mukammallashtirdi. Uning "**Mona Liza**" asari realizm va psixologik chuqurligi bilan ajralib turadi. **Mikelanjelo** esa monumental san’at va haykaltaroshlikda yetakchi bo‘lib, uning "**Dovud**" haykali inson jismoniy va ruhiy qudratini aks ettirishda san’atning eng yuqori cho‘qqilaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, Renessans me’morchiligi ham katta o‘zgarishlarga uchradi. Filippo Brunelleski tomonidan yaratilgan **perspektiva qonunlari** bino va rasmlarda chuqurlikni aniq aks ettirish imkonini berdi. **Santa-Mariya-del-Fiore** sobori kabi yirik me’moriy obidalar yangi tamoyillarga asoslangan holda barpo etildi. Renessans san’ati va madaniyati nafaqat badiiy yutuqlarga erishdi, balki ilm-fan va falsafaga ham yangi yo‘nalishlar olib kirdi. Bosma uskunaning ixtiro qilinishi esa ilmiy va adabiy asarlarning keng tarqalishiga turtki bo‘lib, bu davrning madaniy yuksalishida muhim rol o‘ynadi.

### **Madaniyat va gumanizm**

Renessans davri madaniyat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi. Bu davrning eng muhim jihatlaridan biri insonparvarlik g‘oyalarining shakllanishi va rivojlanishi bo‘ldi.

Gumanizm insonning ijodiy salohiyatiga, erkin fikrlashiga va shaxs sifatida kamol topishiga ahamiyat berdi. O'rta asrlarning diniy dunyoqarashi o'rniga inson va uning imkoniyatlari oldingi o'ringa chiqdi. Adabiyot, falsafa va san'atda insoniy mavzular, his-tuyg'ular va betakrorlik yuksak qadrlana boshlandi. Dante Aligyeri, Franchesko Petrarka va Jovanni Bokkachcho kabi Renessans adiblari inson tabiatini, histuyg'ularini va jamiyatdagi o'rnini chuqur tasvirlashga harakat qildilar. **Dante** o'zining "Ilohiy komediya" asarida inson ruhiyatining murakkab jihatlarini o'rgandi, **Petrarka** o'z lirik she'rlari orqali inson qalbidagi nozik tuyg'ularni ifoda etdi, **Bokkachcho** esa "Dekameron" asarida inson hayotini voqelikga mos tarzda tasvirlab, jamiyatga tanqidiy nazar bilan qaradi. Gumanizmning rivojlanishi san'atga ham katta ta'sir ko'rsatdi. San'atkorlar va me'morlar inson tanasini anatomik jihatdan to'g'ri tasvirlashga intildilar. **Leonardo da Vinci** va **Mikelanjelo** kabi ijodkorlar inson jismoniy va ruhiy olamini chuqur anglashga harakat qildilar. Bu esa san'atning ancha tabiiy va jonli bo'lishiga olib keldi.

Renessans madaniyati nafaqat Yevropada, balki butun dunyoda ilm-fan va san'atning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Sharq madaniyati bilan bog'liq holda, Renessans g'oyalari ilm-fan va san'atda yuksalishlarga sabab bo'ldi. Masalan, **IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda Birinchi Renessans** deb ataluvchi ilmiy va madaniy yuksalish kuzatilgan bo'lib, bu davrda **Al-Farg'oniy**, **Al-Xorazmiy**, **Ibn Sino** kabi olimlar fan va madaniyatga ulkan hissa qo'shgan edilar. Keyinchalik, **XIV-XVI asrlarda Temuriylar Renessansi** davrida **Alisher Navoiy**, **Mirzo Ulug'bek** kabi allomalar ilm-fan, adabiyot va san'atni yangi bosqichga olib chiqdilar. Renessans nafaqat Yevropa, balki butun dunyoni global madaniyatini rivojlanishida katta rol o'ynagan. Bu davrning ilmiy va madaniy yutuqlari keyingi asrlardagi taraqqiyotga zamin yaratdi va zamonaviy madaniyat, san'at va ilm-fanning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

## XULOSA

Renessans davri insoniyat tarixidagi eng muhim burilish nuqtalaridan biri bo'lib, madaniyat, ilm-fan, san'at va adabiyot sohalarida inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Bu davr, ayniqsa, o'rta asrlarning diniy chekllovlariga qarshi gumanistik qadriyatlarni ilgari surishi va insonning markaziy o'ringa chiqishi bilan ajralib turadi. Renessans inson tafakkurini yangi bosqichga olib chiqdi, natijada fanning empirik usullarga asoslangan rivojlanishi, san'atning yanada tabiiy va realistik ifodalarga erishishi, adabiyotda esa inson ruhiyati va individuallikning chuqur tahlil qilinishi kuzatildi.

Ilmiy inqilob Renessansning eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, u tabiatshunoslik fanlari rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Kopernikning heliotsentrik nazariyasi Yerning Koinot markazida emasligini isbotlab, an'anaviy geotsentrik qarashlarga qarshi chiqdi. Galiley Galiley teleskop yordamida astronomik kuzatuvlar

olib borib, Yupiterning yo‘ldoshlari, Oy yuzasining notekisligi kabi muhim kashfiyotlarni amalga oshirdi. Shuningdek, Kepler planetalar harakati qonuniyatlarini aniqlab, ilmiy metodologiyaning shakllanishiga ulkan hissa qo‘shdi. Bu olimlarning ishlari keyinchalik Nyuton mexanikasi va tabiiy fanlarning rivojlanishiga zamin yaratdi.

San’at sohasida Renessans realizm va perspektiva tamoyillarining keng joriy etilishi bilan ajralib turdi. Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Rafael kabi san’atkorlar inson tanasining aniq tasvirlanishi, tabiiy harakat va ifodani san’atga olib kirib, san’at tarixida yangi bosqichni boshlab berdilar. Leonardo da Vinchi nafaqat rassom, balki muhandis, anatomiya va tabiiy fanlar tadqiqotchisi sifatida ham ilm-fan rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Uning “Mona Liza” va “Oxirgi kechlik” kabi asarlari san’at tarixidagi eng mashhur durdona asarlar sirasiga kiradi. Mikelanjelo esa haykaltaroshlik va me’morchilik sohasida o‘zining buyuk asarlari – “Dovud” haykali va Sikstin kapellasi shiftining bezaklari bilan tanilgan.

Adabiyotda ham Renessans inqilobiy o‘zgarishlarni olib keldi. Dante, Petrarka va Bokkachcho kabi ijodkorlar italyan tilida yozish orqali milliy adabiyotning rivojlanishiga hissa qo‘shdilar. Uilyam Shekspir esa inson tabiatining murakkabligini va ichki kechinmalarini san’at darajasida aks ettirish bilan ajralib turdi. Uning “Gamlet”, “Otello”, “Romeo va Juljeta” kabi asarlari bugungi kungacha inson ruhiyatining turfa qirralarini ochib beruvchi eng buyuk dramatik asarlar sifatida e’tirof etiladi.

Renessansning eng katta ta’sirlaridan biri bosma uskunaning ixtiro qilinishi bo‘ldi. XV asrda Iogann Guttenberg tomonidan ixtiro qilingan bosma texnologiya bilimlarning keng tarqalishiga, savodxonlik darajasining oshishiga va yangi g‘oyalar tezroq yoyilishiga olib keldi. Bu esa o‘z navbatida Yevropada ilmiy inqilob va ma’rifatparvarlik davrining boshlanishiga sabab bo‘ldi. Madaniy va ijtimoiy jihatdan Renessans inson erkinligi, tafakkur mustaqilligi va individualizm g‘oyalarini ilgari surdi. Gumanizm oqimi insoniyat tarixida muhim burilish yasab, diniy aqidaparastlik va mutlaq hokimiyatga qarshi chiqishning asosini yaratdi. Inson huquqlari va shaxsiy erkinlik masalalari ham aynan shu davrda kun tartibiga kiritildi. Bu esa keyinchalik Uyg‘onish davri va zamonaviy demokratiyaning shakllanishiga turtki berdi. Shu tariqa, Renessans insoniyat tarixida ulkan burilish yasagan va ilm-fan, san’at, adabiyot hamda ijtimoiy tafakkurning rivojlanishiga beqiyos hissa qo‘shgan davr sifatida qoldi. Bugungi kunda ham Renessans tamoyillari – ilmiy izlanish, ijodiy tafakkur va inson erkinligi – global taraqqiyotning muhim omillari bo‘lib qolmoqda. Renessans boshlab bergen yangilanish jarayonlari zamonaviy ilm-fan va madaniyatning poydevorini tashkil etib, hozirgi insoniyatning dunyoqarashi va taraqqiyot yo‘nalishini belgilab bermoqda.

## ADABIYOTLAR ROYXATI

1. "**Uyg'onish davri**" – Ushbu Vikipediya maqolasi Renesans davrining umumiy tavsifi, uning tarixi va asosiy xususiyatlari haqida bat afsil ma'lumot beradi.
2. "**Sharq uyg'onish davri madaniyati**" – Mazkur maqolada Sharq Uyg'onish davrining madaniyati, uning rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.
3. "**Musulmon renessansi davrida O'rta Osiyoda fan va madaniyat rivoji tarixi**" Ushbu darslik O'rta Osiyoda musulmon renessansi davridagi fan va madaniyatning rivojlanishi haqida bat afsil ma'lumot beradi.
4. "**Temuriylar renessansi**" – Vikipediyaning ushbu maqolasida Temuriylar davridagi renessansning tarixi va uning Osiyo hamda Islom tarixidagi o'mi yoritilgan.
5. "**IX-XII asrlar musulmon falsafiy tafakkuri va Yevropa Renesans davri falsafasining o'zaro ta'siri**" – Ushbu o'quv qo'llanmasi musulmon falsafiy tafakkuri va uning Yevropa Renesans davri falsafasiga ta'siri haqida ma'lumot beradi.
6. "**Falsafa**" – Ushbu darslikda falsafa fanining asosiy masalalari, uning tarixi va rivojlanishi haqida bat afsil ma'lumot berilgan.
7. "**Madaniyatshunoslik**" – Mazkur kitobda madaniyatshunoslik fanining asosiy tushunchalari, uning tarixi va rivojlanishi haqida so'z yuritiladi.